

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA ERKAK VA AYOLLAR NUTQINING LEKSIK VA PRAGMATIK FARQLARI

Karimova Aziza Saparqul qizi

aziza.karimova25@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17396945>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida erkaklar hamda ayollar nutqining leksik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Unda genderga xos nutq strategiyalari, so'z tanlovi, muloyimlik darajasi, inkor va iltimos ifoda vositalarining qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, madaniy omillarning nutqga ta'siri hamda genderning kommunikativ uslubga ko'rsatadigan ta'siri tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari jinslararo kommunikatsiyaning tilshunoslik va pragmalingsvistik jihatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gender, pragmatik farq, leksik xususiyat, nutq strategiyasi, ingliz tili, o'zbek

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ лексических и прагматических особенностей речевого поведения мужчин и женщин в английском и узбекском языках. Рассматриваются гендерно обусловленные речевые стратегии, выбор лексики, степень вежливости, а также особенности выражения отрицания и просьбы. Кроме того, исследуется влияние культурных факторов на речевое поведение и анализируется воздействие гендера на коммуникативный стиль. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию лингвистических и прагмалингвистических аспектов гендерной коммуникации

Ключевые слова: гендер, речевые стратегии, лексические особенности, прагматические средства, вежливость, культурные факторы, коммуникативный стиль, английский язык, узбекский язык

Abstract

This article presents a comparative analysis of the lexical and pragmatic features of male and female speech in English and Uzbek. It examines gender-specific speech strategies, lexical choices, levels of politeness, and the means of expressing negation and requests. The study also explores the influence of cultural factors on speech behavior and analyzes the impact of gender on communicative style. The findings contribute to a deeper understanding of the linguistic and pragmalinguistic aspects of gender-based communication.

Keywords: gender, speech strategies, lexical features, pragmatic devices, politeness, cultural factors, communicative style, English language, Uzbek language

Genderga xos nutq uslubi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ayollar va erkaklar nutqidagi farqlarni tahlil qilish nafaqat leksik darajada, balki pragmatik va lingvomadaniy qatlamda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, gender kommunikatsiyasida ishlatiladigan nutq strategiyalarini o'rganish, til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi madaniy hamda lingvistik tafovutlar ushbu tillarda erkaklar va ayollar nutqida kuzatiladigan farqlarni yanada keskinroq ko'rsatadi. Genderga oid til birliklarining qo'llanishi, ijtimoiy maqom, stereotiplar, urf-odatlar va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir til doirasida o'ziga xos nutq modellari shakllangan.

Gender lingvistikasi yoki gender tilshunosligi XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllana boshlagan. Ushbu yo'nalish doirasida Robin Lakoff (1975) o'zining "Language and Woman's Place" nomli asarida ayollar nutqiga xos xususiyatlarni tahlil qilgan holda, ularning tilidan ko'proq noaniqlik, muloyimlik va ijtimoiy bosimni aks ettiruvchi vositalar o'rin olishini ta'kidlagan. Shuningdek, Debora Tannen (1990) "You Just Don't Understand" nomli tadqiqotida erkaklar va ayollar o'rtasidagi kommunikativ farqlarni "report talk" va "rapport talk" (axborotga yo'naltirilgan nutq va munosabatga yo'naltirilgan nutq) kontsepsiyasi orqali tushuntiradi. Peter Trudgill esa fonologik va sotsiolingvistik tadqiqotlar asosida erkaklar va ayollar tilda turli ijtimoiy prestijga ega shakllarni tanlashini ko'rsatgan.

O'zbek tilshunosligida gender lingvistikasi nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, bu boradagi tadqiqotlar hali keng rivojlanmagan. Biroq amaliy til muhitida genderga xos nutq birliklari, etik-normativ ifodalar, muloyimlik darajalari va murojaat shakllari aniq ko'zga tashlanadi. Masalan, ayollarning ko'proq iltimosli, bilvosita va hissiy uslubda so'zlashi, erkaklarning esa to'g'ridan-to'g'ri, buyruq yoki xolisona shakllarda fikr bildirishga moyilligi kuzatiladi. Bu esa o'zbek tilida ham genderga xos kommunikativ strategiyalarning mavjudligini anglatadi.

Genderga oid *leksik farqlar* erkaklar va ayollar tomonidan tanlanadigan so'zlar, ularning ohangdorligi, emosional rangdorligi va nutqdagi funktsional yuklamasi bilan tavsiflanadi. Ayollar nutqida ko'proq yumshoqlik, ehtiyotkorlik va hissiy ifoda vositalari ko'zga tashlansa, erkaklar nutqi esa aniq, buyruqona va rasmiy

Ayollar, odatda, muloyimlikni ifodalovchi va hissiy-estetik xarakterga ega so'zlarni tanlaydi. Masalan; o'zbek tilida: "iltimos", "juda yaxshi", "menimcha", "uzr" kabi so'zlar ingliz tilida: "I think...", "I feel like...", "Sorry, but..." deb aytiladi. Shuningdek, ayollar nutqida *emosional kuchaytirgichlar* (intensifikatorlar) keng qo'llanadi: Masalan; o'zbek tilida "ajoyib", "nihoyatda go'zal", "benihoya yaxshi" bo'lsa, ingliz tilida esa : "so nice", "absolutely amazing", "really wonderful". Bu kabi leksik vositalar ayollar nutqida ijtimoiy hamjihatlikni saqlash, bahsdan qochish va tinglovchiga ijobiy ta'sir o'tkazishga qaratilgan strategik yondashuvni namoyon etadi.

Erkaklar nutqida esa *aniq, buyruqona, va kam emosional* so'zlar ustunlik qiladi. Ularning nutqi ko'proq vazifaviylikka va lo'ndalikka asoslanadi: Bunga misol tariqasida o'zbek tilidagi, "kerak", "bo'lmaydi", "men aytdim", "shart" so'zlari ingliz tilida: "This is wrong", "We need to act", "I said no" deb aytiladi. Bu kabi leksik tanlov erkaklar nutqining dominant va bevosita muloqotga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Gender nutqiga *madaniy kontekst* sezilarli ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy o'zbek jamiyatida ayollar ko'proq ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lgan — muloyim, ehtiyotkor va itoatkor nutq uslubini tanlashga majbur bo'lishadi. Bu holat gender rollarining ijtimoiy me'yorlar orqali shakllanishi bilan bog'liq. Shuningdek, o'zbek tilida murojaat, uzr so'rash, minnatdorchilik bildirish kabi janrlar ayollar nutqida ko'proq va kengroq ifodalangan.

Ingliz tilida esa so'nggi o'n yilliklarda gender tenglik g'oyalarining kuchayishi natijasida erkaklar va ayollar nutqi o'rtasidagi tafovutlar sezilarli darajada kamayib bormoqda. Biroq, ayrim holatlarda hali ham an'anaviy nutq modellari saqlanib qolgan: masalan, ayollar ko'proq muloyim ifodalarni, erkaklar esa to'g'ridan-to'g'ri buyruqlarni ishlatishda davom etishadi. Bu esa madaniy o'zgarishlarga qaramay, gender kommunikatsiyasida tarixiy ildizlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Ingliz va o'zbek tillarida erkak va ayollar nutqida leksik va pragmatik farqlar mavjud. Bu farqlar nafaqat til me'yorlari, balki milliy madaniyat, ijtimoiy rollar va

kommunikativ an'analar bilan bog'liq. Bunday tahlillar kelgusida gender lingvistikasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Lakoff, R. (1975). Language and Woman's Place.
2. Tannen, D. (1990). You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation.
3. Trudgill, P. (2000). Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society.
4. Mamadaliyeva, N. (2020). O'zbek tilida genderga xos nutq xususiyatlari.
5. Qurbonov, A. (2019). Lingvomadaniyat va nutq madaniyati